



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

DEYKSIS TURLARINING BADIY MATNLARDAGI IFODASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ernazarova Laylo Abdusaitovna
Samarqand davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matnlarda deytik birliklar (deyksis)ning qo'llanishi hamda ularning talqin qilinish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida deyksisning asosiy turlari — shaxs, makon, zamon, diskurs va ijtimoiy deyksis — alohida ko'rib chiqilib, ularning nasriy asarlarda deytik siljish orqali badiiy voqelikni yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Nasriy asarlardan olingan misollar asosida deytik birliklarning o'quvchini matn voqeligiga jalb etish, shuningdek, muallif yoki qahramon nuqtai nazarini belgilashdagi funksional xususiyatlari ochib beriladi. Tahlillar natijasida deytik birliklar badiiy matnning jonli ifodasini ta'minlash, mazmunning ko'p qatlamli talqinini yuzaga keltirishda muhim lingvopragmatik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, deytik birliklar, lingvopragmatika, olmosh, deyksis, nasriy matn, deytik siljish, shaxs deyksisi, zamon va makon deyksisi.

ВЫРАЖЕНИЕ ТИПОВ ДЕЙКСИСА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ И ИХ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Эрназарова Лайло Абдусайтовна
Самаркандский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются особенности использования и интерпретации дейктических единиц (дейксиса) в художественных прозаических текстах. В ходе исследования рассматриваются основные виды дейксиса — личный, пространственный, временной, дискурсивный и социальный дейксис, а также освещается их роль в создании художественной реальности посредством дейктического сдвига в прозаических произведениях. На основе примеров из прозаических произведений раскрываются функциональные особенности дейктических единиц в привлечении читателя к художественному миру текста и в определении точки зрения автора или персонажа. В результате анализа обосновывается, что дейктические единицы являются важным лингвопрагматическим средством, обеспечивающим выразительность художественного текста и формирование его многослойной интерпретации.

Ключевые слова: художественный текст, дейктические единицы, лингвопрагматика, местоимение, дейксис, прозаический текст, дейктический сдвиг, личностный дейксис, временной и пространственный дейксис.

THE EXPRESSION OF TYPES OF DEIXIS IN LITERARY TEXTS AND THEIR LINGUOPRAGMATIC FEATURES

Ernazarova Laylo Abdusaitovna
Samarkand State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article examines the features of the expression and interpretation of deictic units

(deixis) in literary prose texts. The study considers the main types of deixis—personal, spatial, temporal, discourse, and social deixis—and highlights their role in constructing the narrative world through deictic shifts in prose works. Based on examples from prose texts, the functional role of deictic units in engaging the reader in the fictional world and in establishing the perspective of the author or characters is analyzed. The results show that deictic units serve as an important linguopragmatic tool that enhances the vividness of literary texts and contributes to their multilayered interpretation.

Keywords: literary text, deictic units, linguopragmatics, pronoun, deixis, prose text, deictic shift, personal deixis, temporal and spatial deixis.

Keyingi davrda jahon tilshunosligida deyksis hodisasi turlicha qarashlar asosida talqin va tahlil qilinmoqda va mazkur murakkab hodisaning turli jihatlarini yoritishga imkon bermoqda. Deyksis hodisasi haqida falsafa, mantiq, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Deyktik birliklar tilshunoslikda nutq kontekstiga bog'liq leksik-grammatik vositalardir. Ularning ma'nosi faqat so'zlovchichi/hikoyachi, tinglovchi/o'quvchi, vaqt va makon koordinatalariga qarab aniqlanadi. Oddiy og'zaki nutqda deyktik birliklar bevosita ishtirokchilar orasidagi aloqani ta'minlasa, badiiy matnlarda ular hikoya dunyosini yaratish, o'quvchini voqeaga jalb qilish va mualliflik nuqtayi nazarini ifodalashda murakkabroq vazifa bajaradi. Nasriy matnlarning o'ziga xosligi shundaki, unda deyktik birliklar "deyktik siljish" jarayoni orqali ishlaydi: o'quvchi o'z real "men – hozir – bu yer" markazini hikoyadagi qahramon yoki hikoyachining markaziga proyeksiya qiladi. Bu jarayon adabiy matnning immersiv (o'quvchini ichkariga tortuvchi) xususiyatini ta'minlaydi.

Maqolaning maqsadi – badiiy matnlarda deyktik birliklarning ifodalanish shakllari va talqin mexanizmlarini tahlil qilish, shuningdek, ularning hikoya tuzilishi va o'quvchi idrokidagi rolini aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tahlil deskriptiv va interpretativ usullarga asoslanadi:

Avstriyalik psixolog Karl Byuler deyksis nazariyasiga ta'rif berar ekan shunday deydi: "Til va subyektivlik o'zaro bog'liq. Tildagi ayrim ifodalar har doim kontekstga, subyektiv holatlarga va vaziyatga bog'liq bo'ladi". Hikoya qilish jarayonida deyktik ifodalar yordamida tinglovchi yoki o'quvchining e'tibori hikoya qiluvchining yoki qahramonning nuqtayi nazariga qaratiladi. Bu voqeani kim aytayotgani, qaysi joy va zamon haqida hikoya qilinayotganini anglashga yordam beradi, hikoya matni nega va qanday qilib "hozirgi" voqelikdan ajratilgan holda qabul qilinadi, degan savolga deyksis orqali javob beriladi". Umumiy qilib aytganda, pragmalingsvistikada deyksis masalalari bo'yicha K.Brugman, O.Yespersyan, K.Byuller, Ye.V.Paducheva, A.M.Peshkovskiy V.V.Vinogradov, A.A.Potebnya, N.D.Arutyunova, G.G.Matveyeva, Y.M.Volf, kabi olimlar ilmiy faoliyat olib bordilar.

O'zbek tilshunosligida 1980-1990 yillarda nutq vaziyati va matn lingvistikasi tadqiqida semantika, sintaktika, stilistika va pragmatika sohalarini uyg'un holda o'rganishga e'tibor kuchaydi. Matn va uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy vositalar tadqiqi yuzasidan qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinib, monografiyalar, qo'llanmalar yaratildi. Tilshunos olimlar A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, Z.Tohirov, D.Lutfullayeva, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, Sh.Safarov, M.Hakimov, M.Saidxonov, S.Boymirzaeva, S.Maksumova, A.Ko'chiboev, M.Qurbonova, A.Pardayev, M.Abdupattoyev, E.Ibragimova, S.Qurbonova, M.Gaziyeva, U.Nosirova, N.Qazaqova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida pragmatika va uning tadqiqot predmeti, undagi asosiy tushuncha va tamoyillar bilan bir qatorda muloqot jarayonining stilistik, sotsiolingsvistik, psixolingsvistik va metodik jihatlarini tadqiq etildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqotlarning barchasi o'zbek tilshunosligida pragmalingsvistika haqidagi nazariyaning shakllanishiga xizmat qilib, shu sohada amalga oshirilgan ishlar uchun ilmiy-nazariy

manba vazifasini bajarib kelmoqda. Ayni paytda, sintaktik birliklarning pragmatik xususiyatlari amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning asosini tashkil qilgan bo'lsa-da, pragmalingsvistika matn tilshunosligi bazasida shakllanib, matnning pragmatik jihatlari o'rganilgani holda, matn lingvistikasi yo'nalishida yangi sohalarining paydo bo'layotganligi tadqiqot maydonining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ilmiy matnning pragmatik xususiyatlari tilshunos olim M.Hakimov tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, poetik matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari U.Nosirova tomonidan yoritilgan. O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan badiiy matn parchalarida deytik birliklar aniqlandi. Deytik birliklarning turlari bo'yicha tasniflandi, hikoyachi nuqtayi nafari (birinchi va uchinchi shaxs) asosida qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilda ko'rsatish, ishora qilish kabi deyksis maydoniga oid lisoniy birliklarning pragmatik tadqiqida dastlab bu gutuhga kiruvchi vositalarning mohiyati va bu sistemaning shakllanish tarixi ma'lum ma'noda so'z turkumlari nazariyasi haqidagi ta'limotlar bilan bog'lanadi. Idrokning oily darajasi bo'lgan ilmiy mushohada yuritishida ham qiyoslash usuli azaliy va eng faol usul sanaladi. Mustaqil so'z turkumlaridan olmoshlar ayrim pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi, ular narsa va predmetlarni bilvosita nomlaydi. Olmoshlarning pragmatik ma'nosi nutq vaziyati va matn bilan bog'liq holda anglashiladi. Pragmalingsvistik tadqiqotlarda esa olmoshlarga xos xususiyatlar o'rganiladi. Deytik vazifani nafaqat olmoshlar, balki grammatik kategoriyalarga mansub affikslar ham bajarishi mumkin. Demak, deyksislar leksik hamda grammatik vositalar orqali ham ifodalanadi. Deyksis hodisasi nutq vaziyati bilan bog'liq holda "nutqiy aktlar" komponentlarini qamrab oladi, bu komponentlarga nutqiy akt ishtirokchilari, nutq predmeti va ifodalanayotgan xabarlar mansub. Pragmalingsvistikada deyksis haqida so'z borar ekan deytik elementlar, indikativ va indikativ bo'lmagan, deskriptiv va nodeskriptiv, shifterlar, anaphora, anafirik munosabat kabi tushunchalar muhim o'rin tutadi. Til hodisasi sifatida bunday so'zlarda denotat muhim emas. Deskriptiv, tasviriy vazifa tushunchalari o'rnida indikativ va nodeskriptiv birliklarda ko'rsatish, ishora qilish kabi xususiyatlarning mavjudligi matnga xos tushunchalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Tilshunoslikda deyksis tushunchasi ana shunday amaliy ehtiyojlar tufayli vujudga keldi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, shifterlarning tipik namunasi deytik elementlarda namoyon bo'ladi. Shifterlar nutqiy akt, matnning paydo bo'lishi, nutq vaziyatida ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan ishora vazifalarini amalga oshiradi. 1-shaxsni ifodalagan men olmoshi shifterlar uchun misol bo'ladi. Shuningdek, olmoshlar – indikativ simvollar sifatida shartli va ko'rsatish vazifalarini qamrab oladi.

S.Levinsonning qayd etilishicha, yozma kommunikatsiya sharoitida zamonning qaysi daqiqasi (nutqning shakllanish holatini yoki uning qabul qilinishini) asos sifatida olinishiga nisbatan tillarni ikki guruhga ajaratadi. Deyksis morfologik yoki leksik sathlariga oid hodisa bo'lmasdan, balki uning vazifaviy qatlamidan o'rin olgan va nutqiy muloqot muhitida faollashadigan hodisadir. An'anaga binoan deyksis nutqiy akt kechishining zamon va makon ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda ta'riflanadi. V.A.Vinogradovning "Lingvistik lug'at"ida berilishicha "deyksis matnning ichki tuzilishiga qaram bo'lib, ko'rsatish yoki ishoraning kontekstual maydonida voqelanadi". Bunday vazifani bajaruvchi lisoniy birliklar "deyksis iboralar" deb ham yuritiladi. Amerikalik tilshunos Ch. Fillmor deksisning shaxs, makon, temporal, sotsial va diskursiv turlarini farqlanishini ta'kidlaydi. Diskursiv deyksis bevosita matn bilan bog'liq bo'lmasdan, leksik va grammatik elementlar tanlovi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Uning fikricha, deytik iboralar og'zaki va yozma nutqda turlicha faollashadi. Deyksisni turlarga ajratish an'anasi hozirga qadar davom etmoqda. Masalan, birinchi turdagilarga shaxs, makon va zamon deyksislari mansub bo'lsa, ikkinchisi matn deyksisi sifatida esa gaplar orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi vositalarni tashkil qiladi. Ilmiy adabiyotlardan anglashiladiki, deyksis doirasiga turli ko'rinishdagi ishoralar kiritiladi. Bu muloqot ishtirokchilari, ya'ni so'zlovchi va tinglovchiga ishora bo'lib, u shaxs olmoshlari vositasida ifodalanadi. Boshqa turdagi

deyxisis nutq predmeti, ya'ni obyekt yoki odamga ishora bo'lib, uning ifoda vositasi uchinchi shaxs va makondagi joyga ishora faollashib, ravish ot va boshqa kategorial birliklar ishtirokini talab etadi. E'tirof etilgan barcha holatlarda nutqiy tuzilma mazmunda aks etadigan, tashqi dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar mo'ljali oladi. Shuningdek, deyxisis matnning ichki tuzilishida namoyon bo'ladigan munosabatlarini ham aks ettirishi mumkin va bunda diskurs qismlarining semantik bog'lanishi ta'minlanadi. Nutqiy faoliyatni deytik iboralarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki nutqiy akt zamon va makonga ishorasiz vazifasini bajara olmaydi. Zamon, makon, subyekt kabi tushunchalarning mohiyati inson haqidagi tasavvurda, uning ishtirokida namoyon bo'ladi. Hozirgacha deyxisisning uch asosiy turi: shaxs, zamon va makon deyxisislari tadqiqi o'z dolzarbligini saqlamoqda. Bunday deyxisis turlarini ifodalovchi lisoniy birliklar kishilik olmoshlari (men, sen, siz), makon (shu yerda, u yerda) va payt (hozir, oldin, keyin) kabilar jadal o'rganib kelinmoqda. Shaxs deyxisisini ifodalovchi birliklarga kishilik olmoshlari kiradi. Sen, siz, u olmoshlari qo'llanilganida esa so'zlovchi va adresatning kommunikativ jarayonning bevosita ishtirokchisi ekanligiga ishora qilinadi.

Sevgi

Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar. Ularni Sevgi degan g'aroyib kuch topishtirdi. Ular ana shu kuch sehriga maftun bo'lib qoldilar.

Ajab, sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Unga Hijron degan alanga ergashib keldi. Ular ana shu alanga otashida baravar kuya boshladilar.

Nihoyat, Hijron alangasi so'ndi-yu, Sevgi, Visol degan entiktiruvchi tuyg'uni yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Endi u Sinov degan to'siqni yetaklab keldi. Agar ular Sevgining qo'lidan mahkam tutishganida bu to'siqdan o'tishlari mushkul emasdi. Ammo unday bo'lmadi. Ular sinov oldida chekindilar.

O'rtada Shubha, Rashk degan sharpalar o'rmalab qoldi. Shunda ular o'zlarini topishtirgan Sevgiga ilk bor ta'na toshi otdilar.

Sevgi shunda ham ularni kechirdi. Sabot, Mehr, degan kuchlarga oshno qilishga urindi. Ammo ular Sabotni ham, Mehrni ham unutdilar. O'zlarini topishtirgan Sevgi degan "yovuz kuch"ga la'nat aytdilar!

Shunda... Ularning qismatiga Xiyonat kirib keldi! Ular Sevgini ayblay-ayblay, oxiri...ajrashdilar...

Qismat chorrahasida esa uchta begunoh go'dak chirqillab qoldi. Besh yashar o'g'il, uch yashar qizaloq va...yetim qolgan Sevgi ...

Yuqoridagi kichik nasriy matnda keltirilgan deyxisis ifodalanishiga e'tibor bersak, Unda: ular 3-shaxsga ishora, ya'ni sevishtgan insonlar – shaxs deksisi, shunda ko'rsatish olmoshi orqali payt ma'nosi yordamida zamon deyxisisi yuzaga chiqqan. Nasriy matnda ifodalangan deyxisis turlariga esa insondagi buyuk tuyg'u ham qiyinchiliklarga dosh berolmasa, sinovlarda toblanmasa, vaqti kelib "yovuz kuchga" aylanishi mumkin, undan esa eng ko'p norasidalar – go'daklar aziyat chekadi, degan pragmatik ma'no yuklangan. Makon deyxisisi otli so'z birikmalari va boshqa iboralar ishtirokida ham voqelanadi. Tilimizda deyxisisni ifodalovchi birliklar mavjud bo'lib, bular shaxs, zamon, makonga ishora ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy birliklar bilan bir qatorda, morfologik vositalar, jumladan, shaxs, zamon, daraja kabi grammatik kategoriyalar, so'zlar ham o'rin egallaydi. Shuningdek, mohiyatan deytik bo'lmagan ba'zi birliklar ham shu vazifada kelishi kuzatiladi. Bunday birliklar qanday bo'lishidan qa'tiy nazar matnga mos kelishi kerak. Morfologik vositalar, qo'shimchalar ham shunday xususiyatga ega bo'lishi zarur. Morfologik elementlar gaplar deytik mazmun olishga xizmat qiladi. Deytik birliklar ma'lum vaziyatlarda deytik ma'nodan xolos bo'lishlari mumkin va bunda ushbu birliklar anaforik mazmunga ega bo'ladi.

Maymuniyat

Olimlar yer yuzida odamsimon maymunlar kamayib ketyapti, deb bong urmoqda. Ular

tashvishlanmasa ham bo'ladi. Yer yuzida maymunsimon odamlar ko'payib bormoqda...

Kichik nasriy matnda qo'llanilgan ular – kishilik olmoshi deytik mazmun ifodalamoqda, Yer yuzida hayvonot dunyosi bilan shug'ullanuvchi olimlar nazarda tutilmoqda. Matnning pragmatik tahlili esa oramizda Alloh yaratgan jonzot – insonlar o'zligini yo'qotib bormoqda, maymunsimon odamga aylanmoqda degan mazmun ochiqdanadi.

Deyksisning har qanday turida "ko'rsatish, ishora qilish ikki jihati bilan farqlanadi: ko'rsatish, havola qilish birida lingvistik kontekst doirasida amalga oshirilsa, ikkinchisida esa bu jarayon nutq vaziyatiga nisbatan qo'llaniladi. Mana shu xususiyatlarga ko'ra deyksis va anafora hodisalari bir-biridan farqlanadi".

Sabot

Tangri insonga sabot bergan. Nonini tortib olsalar, chidaydi. Molini o'g'irlasalar, chidaydi. Ursalar, so'ksalar, chidaydi. Ammo oqni qora, qorani oq desalar, Farishtani "shayton", shaytonni "farishta" deb "isbotlab bersalar", bunisiga chidashi qiyin...

Bunday paytda so'nggi ilinj – Ollohda madad so'rab, iltijo qilishdir. Tangrining torozusi bexato ishlaydi...

Ijodkor tilimiz jozibasini ifodalab yozgan kichik nasriy matnda lisoniy vositalardan mohirlik foydalanagan. Dastlab sanash orqali gradatsiyaning mohiyati ifodalangan, uning pragmatik jihati inson boshidan o'tkazadigan sinovlar – barchasi darajalangan, presuppozitsion ma'nosi oq-u qora, shayton va farishta antitezasi yordamidamida aniq ifoda etilgan. Bunday paytda – deya qayd etilgan zamon deyksisi esa, kitobxonga tanish bo'lgan, har bir iymonli inson duch kelgan og'ir hayot tubanliklari oldida ojiz qolgan vaqt nazarda tutilgan.

XULOSA

Nasriy matnlarda deytik birliklar hikoyaning asosiy tuzuvchi elementlaridan biridir. Ular orqali muallif o'quvchini hikoya dunyosiga "ko'chiradi", voqeani jonli va shaxsiy qiladi. Deytik birliklarni talqin qilishda kontekst, hikoyachi pozitsiyasi va o'quvchi proyeksiyasini hisobga olish zarur. Shunday qilib, jahon tilshunosligida deyksis tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud, deyktik iboralarning qo'llanilishi ayrim kommunikatsiya faoliyatining aspektlarida, ekstralingvistik kontekstning xossalarida yoki fikr konteksti, shuningdek nutq faoliyatining xususiyatlarida qo'llaniladi. Deyksis holatning markazida so'zlovchi yoki kitobxon turadi va uning makon va zamonda o'rin egallashi boshlang'ich nuqta hisonlanadi. Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini hamda shu harakatining aniq zamonda bajarilishi yoki bajarilmasligini belgilaydi. Borliqdagi axborotlarning muallif ongida qayta ishlanib, poetik tafakkur sinteziga aylanishi, kognitiv bilimlar hosilasi sifatida namoyon bo'lishi va ularning antroposentrik tamoyil asosida pragmatik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kun tilshunosligining matn lingvistikasi hamda pragmatika sohasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqi Toshkent shahri, 2019-yil 21-oktabr.
2. Каменская О.П. Текст и коммуникация. –М., 1990.
3. Филиппов К.А. Лингвистика текста. Курс лекций. – Петербург, 2003.
4. Схернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность. –М.: ЛИБРОКОМ, 2009.
5. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука, 1982.
6. Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. -Тошкент: Poligraf Seper Servis, 2020.14-бет.
7. Nosirova.U. Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Farg'ona: "Classic", 2020.
8. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. –

Самарқанд: СамДЧТИ, 2007.

9. Ҳакимов М. Ўзбек тили прагматикасини ўрганиш. – Фарғона, 2011.
10. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: ЎзМЕ, 2008
11. Пардаёев З. Прагматик лингвистика. – Самарқанд, 2013 -108 б.
12. Маслова А.Ю.Введение в прагмалингвистику. – М., 2010
13. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. –Samarqand, 2007
14. Столнейкер Р.С. Прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. –Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М: Прогресс, 1985. –С. 419-438.
15. Столнейкер Р.С. Прагматика. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 13, Логика и лингвистика. М.: Прогресс, 1985.-С. 130-150.
16. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. –М.: Наука, 1993. – С. 3.
17. Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. – М.:Академия, 1997. – С. 267.
18. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути знаний о языке:части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004.– С. 14.
19. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие —концепт в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 2000. –С. 4.
20. Маслова В.А.Когнитивная лингвистика. –Минск: ТетраСистемс,2008.–С.50.
21. Hoshimov.O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Т.:”Sharq”, 2006.
22. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. –92 б.